



UO'T: 631.52:635.26

BOSHLANG'ICH MANBA YARATISH UCHUN SARIMSOQ NAV NAMUNALAR TO'PLAMINI O'RGANISH

O'tayev Raximjon Xalimovich 

q.x.f.f.d., (PhD)

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiya universiteti.

Annotatsiya. Maqolada sarimsoq nav namunalar to'plaminining qimmatli xo'jalik belgilari o'rganilib, serhosil, hosil sifati yuqori, saqlashga yaroqli bo'lgan istiqbolli namunalarini boshlang'ich manba sifatida ajratish borasida olib borilgan tajriba natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sarimsoq, qiyosiy nav, seleksiya, piyozbosh, piyozcha, gulnovda, indeks, tanlash, hosildorlik

Аннотация. В данной статье освещены результаты проведенных опытов по выделению перспективных образцов с высокой урожайностью, высоким качеством урожая, пригодных для хранения в качестве исходного сырья.

Ключевые слова: чеснок, стандарт, селекция, зубки, луковица, соцветие, показатель, отбор, продуктивность.

Abstract. This article highlights the results of the experiments carried out to identify promising samples with high yields, high crop quality, suitable for storage as feedstock.

Key words: garlic, standard variety, selection, cloves, bulb, inflorescence, indicator, selection, productivity.

KIRISH.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida sarimsoqning yuqori hosilli, sifatli, kasallik va zararkunandalar chidamli yangi navlarini yaratishga bo'lgan talab ortib bormoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyo bo'yicha 29,1 mln tonna sarimsoq yetishtirilgan. Jumladan dunyo bo'yicha eng ko'p sarimsoq yetishtiruvchi mamlakatlar: «Xitoy Xalq Respublikasi (21,3 mln t.), Hindiston (3,2 mln t.), Bangladesh (526,8 ming t.), Argentina (396,5 ming t.), Ispaniya (281,9 ming t.), Janubiy Koreya (272,8 ming t.), Efiopiya (218,8 ming t.), O'zbekiston (210,3 ming t.), Amerika Qo'shma Shtatlari (204,8 ming t.), hamda

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

Myanma (203,3 ming t.), hisoblanib 26,8 mln tonna sarimsoq yetishtirgan bo'lib umumiy hosilning 92,1% ni tashkil qilgan.

O'zbekiston Respublikasi hududida gulnovda chiqaradigan kuzgi sarimsoqning xalq seleksiyasi yo'li bilan yaratilgan turli-tuman navlari bor.

O'zbekiston Respublikasida yetishtirishga tavsiya etilgan qishloq xo'jaligi ekinlari Davlat reestriga 3 ta sarimsoq navlari kiritilgan. Shulardan Yujno-fioletovyy 1972 yil (muallifi noma'lum) va Mayskiy VIRa 1978 yil (O'zbekiston o'simlikshunoslik ITI) rayonlashtirilgan. 2016 yildan SPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasi olimlari tomonidan yaratilgan Chidamli navi davlat reestriga kiritilgan. Respublikamiz sharoiti uchun bor yo'g'i 3 ta navning reestriga kiritilganligi juda achinarli hol. Rossiya Federatsiyasida ushbu ekinning 90 dan ortiq navlari yaratilgan va Davlat reestriga kiritilgan.

Ayniqsa bu navlarning birlamchi urug'chiligi tashkil etilmaganligi (Chidamli navi bundan mustasno) yoki birlamchi urug'chilik bilan biror bir ilmiy tashkilot shug'ullanmayotganligi hozirgi zamon talabiga umuman javob bermaydi. Bu va boshqa masalalarni e'tiborga olgan holda sarimsoqning yuqori hosilli (20 t/ga va undan yuqori), piyozbosh vazni 100 g gacha va piyozchalar soni 8-10 ta gacha bo'lgan, saqlashga yaroqli navlarini yaratish tadqiqotlarimizning maqsadi hisoblanadi.

MATERIALLAR VA USLUBLAR.

Ilmiy tadqiqotlar SPE va KITI Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida olib borildi. Tadqiqotlar materiali bo'lib mahalliy sharoitda yetishtirilayotgan 17 ta sarimsoq nav namunalari xizmat qildi. Qiyosiy nav Chidamli har 10 ta nav namunasidan keyin joylashtirildi. Piyozchalar 5-sentabrda ekildi.

Tadqiqotlar OST-4671-78, Tadqiqotlar OST-4671-78, "Методические указания по экологическому испытанию овощных культур в открытом грунте", "Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур" asosida olib borildi.

Amal davrida fenologik kuzatuvlar olib borildi (piyozchalarning unib chiqishi (10%; 75%), yoppasiga gulnovda chiqarishi, poyalarning sarg'ayishi, piyozboshlarning yoppasiga texnik pishishi). Hosil yig'ib olingandan 3-kun o'tgach o'lchandi. Sifatli va sifatsiz hosil aloxida o'lchandi. Sifatsiz hosilga diametri 2,5 sm dan kam bo'lgan, kasallangan va zararkunandalar bilan zararlangan, titilib ketgan piyozboshlar kiritildi.

Bo'lmacha hisob maydoni 2,1 m². Piyozchalar pushta ustiga 3 qator, (40+15+15)×10 sm sxemada ekildi.

NATIJALAR VA MUNOZARA.

Sarimsoq nav namunalari amal davri bo'yicha bir-biridan keskin farq qildi.

Nav namunalarda amal davri 217-222 kun tashkil etib, K-10, K-11, K-12, K-18 nav namunalari Chidamli qiyosiy naviga nisbatan 1-2 kunga kech pishib

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

yetildi. K-4, K-7, K-9, K-16 va K-17 nav namunalarining amal davri 217 kunni tashkil etib, qiyosiy navga nisbatan 3 kun erta pishib yetilganligi kuzatildi.

O'simlik bo'yi (gulnovda uzunligi bilan birga) Chidamli navi (36,0 sm) va qolgan nav namunalar esa 31,0-44,0 sm tashkil etdi.

Barglar soni qiyosiy va o'rganilgan nav namunalarida 9 donani tashkil etdi.

Barg uzunligi qiyosi nav va K-2, K-5, K-6, K-9, K-11, K-12, K-13, K-14, K-15, K-16, K-17, K-18 nav namunalarida 42,3-48,2 sm tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich K-3, K-4, K-7, K-8, K-10 nav namunalarida 55,5 sm ni tashkil etib qiyosiy va o'rganilgan nav namunalariga nisbatan 7,3-13,2 sm ga qisqaroq bo'lganligi kuzatildi (1-jadval).

1-jadval.

Sarimsoq nav namunalarining morfologik tavsifi, 2021-2022 yy.

Nav nomi	O'simlik bo'yi, sm	Shu jumladan gulnovda uzunligi, sm	Barg		
			soni, dona	uzunligi, sm	eni, sm
Chidamli, q.n.	36,0	36,0	9,0	45,0	3,0
K-2	36,0	39,0	9,0	47,0	3,0
K-3	35,0	32,0	9,0	54,0	3,0
K-4	33,0	45,0	9,0	50,0	3,0
K-5	41,0	33,0	9,0	48,0	3,0
K-6	32,0	32,0	9,0	45,5	3,0
K-7	39,0	36,0	9,0	55,5	3,0
K-8	37,0	20,0	9,0	51,0	3,0
K-9	35,0	24,0	9,0	45,0	3,0
K-10	31,0	29,0	9,0	51,1	3,0
K-11	33,0	12,0	9,0	44,0	3,0
K-12	38,0	16,0	9,0	45,0	3,0
K-13	32,0	21,0	9,0	43,0	3,4
K-14	35,0	32,0	9,0	46,0	3,2
K-15	39,0	28,0	9,0	42,3	3,2
K-16	35,0	19,0	9,0	48,2	3,1
K-17	44,0	35,0	9,0	48,0	3,4
K-18	39,0	29,0	9,0	45,0	3,7

Barg plastinkasining eni jihatidan navlar o'rtasida sezilarli darajada farq kuzatilmadi va ular 3,0-3,4 sm tashkil etdi.

Sinalayotgan nav namunalarining piyozbosh tavsifi 2-jadvalda keltirilgan.

Eng katta piyozboshlar K-3, K-4, K-7, K-8, K-10, K-16 va K-17 namunalarida kuzatildi. Ushbu navlarda piyozbosh vazni 67,0-78,7 g ni tashkil etdi va bu qiyosiy

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

navga nisbatan 1,0-12,7 g ga ko'p demakdir. Bu nav namunalarida piyozboshdagi piyozchalar soni 8-11 tani, ularning o'rtacha vazni esa 6,0-7,9 g ni tashkil etdi.

Tadqiqotlar piyozbosh vazni uning balandligi va diametri bilan sezilarli darajada bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Xususan, K-17 navida piyozbosh balandligi 4,6 sm ni, diametri 7,0 sm ni, vazni esa 78,7 g ni tashkil etdi. Huddi shu ko'rsatkichlar Chidamli qiyosiy navida muvofiq ravishda indeks 0,6 sm, piyozbosh vazni 66 g ni tashkil etdi.

2-jadval.

Sarimsoq nav namunalarining piyozbosh tavsifi, 2021-2022 yy.

Nav nomi	Piyozbosh				Piyozchalar soni, dona	Bitta piyozcha vazni, g
	balandligi, sm	diametri, sm	indeks	vazni, g		
Chidamli, q.n.	3,4	5,0	0,6	66,0	13	5,0
K-2	3,4	5,3	0,6	66,8	14	4,8
K-3	3,5	5,3	0,7	67,0	13	4,8
K-4	3,6	5,6	0,6	69,0	14	5,0
K-5	3,5	6,0	0,6	64,0	13	4,8
K-6	4,0	10,0	0,4	66,4	14	4,7
K-7	4,0	6,0	0,7	70,2	13	5,3
K-8	3,6	5,5	0,7	67,0	14	4,7
K-9	3,4	5,6	0,6	68,0	13	5,1
K-10	3,7	5,4	0,7	67,0	14	4,7
K-11	4,2	5,4	0,8	64,0	14	4,5
K-12	3,4	5,4	0,6	65,0	13	4,8
K-13	3,4	5,5	0,6	64,0	14	4,5
K-14	3,6	5,7	0,6	64,0	14	4,4
K-15	3,6	6,0	0,6	63,0	13	4,6
K-16	3,5	5,4	0,6	69,0	13	5,2
K-17	4,6	7,0	0,7	78,7	13	5,8
K-18	3,4	5,5	0,6	63,5	14	4,4

Eng katta piyozboshlar K-4, K-7, K-9, K-16 va K-17 namunalarida kuzatildi. Ushbu navlarda piyozbosh vazni 68,0-78,7 g ni tashkil etdi va bu qiyosiy navga nisbatan 2,0-12,7 g ga ko'p demakdir. Ushbu nav namunalarida piyozboshdagi piyozchalar soni 13-14 donani tashkil etdi va ularning o'rtacha vazni esa 5,0-5,8 g ni tashkil etdi.

O'rganilgan nav namunalari hosildorligi va hosil sifati jihatidan turli-tuman bo'lganligi kuzatildi. Masalan, K-13 navida hosildorlik 14,3 t/ga ni tashkil etgan bo'lsa, K-17 navida ushbu ko'rsatkich 29,5 t/ga etdi, 3-jadval.

Eng yuqori umumiy hosildorlik K-4, K-7, K-16 va K-17 namunalarida kuzatildi va 26,7-29,5 t/ga ni tashkil etdi.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

3-jadval

Sarimsoq nav namunalari hosildorligi, 2021-2022 yy.

Nav namunalari	Hosildorlik, t/ga			
	umumiy	qiyosiy navga nisbatan, %	tovarbop	umumiy hosilga nisbatan, %
Chidamli, q.n.	23,8	100	23,3	97,8
K-2	19,0	79,8	18,4	96,8
K-3	23,8	100	23,4	98,3
K-4	28,6	120,0	28,4	99,3
K-5	26,1	109,7	25,8	98,8
K-6	23,9	102,5	23,4	97,9
K-7	26,7	112,1	26,4	98,8
K-8	22,9	96,2	22,5	98,2
K-9	25,0	105,0	18,6	74,0
K-10	23,8	100	23,4	98,3
K-11	22,9	96,2	22,4	97,8
K-12	23,8	100	23,3	97,8
K-13	14,3	60,0	13,9	97,2
K-14	23,8	100	23,3	97,8
K-15	23,8	100	23,5	98,7
K-16	26,8	112,6	26,3	98,1
K-17	29,5	123,9	29,4	99,6
K-18	23,8	100	23,4	98,3

Eng yuqori tovarbop hosildorlik ham K-4, K-7, K-16 va K-17 namunalari kuzatildi va 26,4-29,4 t/ga ni tashkil etdi. Ular Chidamli naviga nisbatan 120-239 % yuqori hosil berdi. Ushbu nav namunalari umumiy hosilning 98,1-99,6% tovarbop hisoblandi.

2021-2022 yillardagi tadqiqot natijalariga asoslanib piyozboshning vazni, hamda umumiy va tovarbop hosildorligi jihatidan K-4, K-7, K-16 va K-17 nav namunalari istiqbolli deb topildi.

Piyozbosh vazni bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan K-4, K-7, K-16 va K-17 kabi nav namunalari ajratildi.

Ushbu navlar klonli tanlash asosida ko'paytirilib, mahalliy sharoitga mos, piyozbosh va piyozchalarning o'rtacha vazni yuqori, piyozchalar soni kam, yuqori va sifatli hosilli navlar yaratish maqsadida boshlang'ich manba sifatida foydalaniladi.

AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

XULOSA.

Sarimsoq nav namunalarini o'rganish asosida piyozboshning vazni, hamda umumiy va tovarbop hosildorligi jihatidan K-4, K-7, K-16 va K-17 nav namunalari istiqbolli deb topildi. Ushbu navlarning umumiy hosildorligi 26,7-29,5 t/ga ni tashkil etib, bu qiyosiy navga nisbatan 12,0-23,9 % ga yuqori demakdir. Eng yuqori tovarbop hosil aynan shu nav namunalarida kuzatildi.

ADABIYOTLAR

1. Делянки и схемы посева в селекции, сортоиспытании и первичном семеноводстве овощных культур. Параметры. ОСТ 4671-78. // В сб.: Сборник нормативных документов на семена и посадочный материал овощных культур. Москва., 1997. -С. 97-111.
2. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. М., 1985. -351 с.
3. Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур. Москва., 1975. Вып. 4. -С. 49-50.
4. Пивоваров В.Ф. Овощи России.Чеснок.//Москва., 1994.-С. 6-7., 116-117